

## **TARJIMA TUSHUNCHASI VA TARJIMASHUNOSLIKDAGI TAHLILLAR**

Uzaqova Odinaxon Moxirjon qizi

Central Asian Medical University, Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat kafedrası

o‘qituvchisi

[uzakovaodinakhon@gmail.com](mailto:uzakovaodinakhon@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarjima atamasining ma’noviy jihatlari, asl tarjima qaysi holatlarda mukammal hisoblanishi, adekvat va ekvivalent tarjima turlari, adekvat tarjimaning o‘ziga xos xususiyatlari izohlangan. Hozirgi kundagi adabiy tarjimaning ahamiyati va tarjimashunoslikdagi yutuqlar bayon etiladi.

**Kalit so‘zlar:** tarjima, adekvatlik, ekvivalentlik, kommunikativ vositachi.

**Аннотация:** В данной статье раскрываются семантические аспекты термина «перевод», в каких случаях оригинальный перевод считается совершенным, виды адекватного и эквивалентного перевода, а также особенности адекватного перевода. Описано значение художественного перевода сегодня и достижения переводоведения.

**Ключевые слова:** перевод, адекватность, эквивалентность, коммуникативное устройство.

**Abstract:** This article explains the semantic aspects of the term translation, in which cases the original translation is considered perfect, the types of adequate and equivalent translation, and the specific characteristics of adequate translation. The importance of literary translation today and achievements in translation studies are described.

**Key words:** translation, adequacy, equivalence, communicative device.

Tarjima - bu insoniyatning ko‘p asrlik tajribasi hisoblanib, turli millatlar, xalqlar, davlatlarning tillararo muloqoti jarayonida tarjimaga aloqador turli xil yondashuvlar, fikrlar shu qadar ulkanki, hatto ularni bitta maqolaga mujassamlashtirish mushkul. Tarjimashunoslik fan sifatida tarjima nazariyasining lingvistik paradigmasida, shuningdek, tillararo kommunikativ vositachi sifatida keng ko‘lamdagi tushunchalar, modellar va strategiyalarni namoyish etadi. Turli omillar ta’sirida yuzaga kelgan

maqbul o‘zgarishlar chegaralari tarjimashunoslikning markaziy masalalaridan biri – tarjimaning ekvivalentligi va adekvatligi o‘rtasidagi bog‘liqlik masalasi (tarjima faoliyati natijasi sifatida tushuniladi).

Tarjima insonning intellektual va shu bilan birga ma’naviy faoliyatining bir turi sifatida, nutqiy fikrlash jarayoni va madaniyatlararo muloqot shakllaridan biri bo‘lib, qadimgi davrlarga borib taqaladi va har bir xalq, butun jahon madaniyati tarixda doimo muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Zamonaviy davrda – XX asr o‘rtalaridan boshlab – xalqaro aloqalarning tobora kuchayib borishi, turli mamlakatlarning iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, madaniy-sivilizatsiyaviy integratsiya jarayonlari tufayli tarjima faoliyati o‘zining barcha turlarida misli ko‘rilmagan miqyosga ega bo‘ldi. Bundan tashqari, o‘tgan asrning o‘rtalaridan boshlab, ilmiy-texnika taraqqiyotining barqaror sur‘atda rivojlanishi badiiy adabiyot tarjimasi, jumladan filmlar uchun ssenariylar, teatrlashtirilgan spektakllarga bo‘lgan yondashuvga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Bu tarjima tadqiqotlari bilan shug‘ullanadigan olimlarning ilmiy ishlarining rivojiga turtki bo‘ldi. Xorijiy mualliflarning fikricha ushbu davr “tarjima asri” deb e’tirof etiladi.

Tarjima bo‘yicha yondashuvlar turlicha. Har bir tadqiqotchi o‘z ishining mazmunidan kelib chiqqan holatda unga turlicha ta’riflarni keltirgan.

A. Kasimbekovanning fikriga ko‘ra, “Sodiq tarjima boshqa til va madaniyatda qabul qilingan asarga shakl, ruh va chuqur ma’no berish uchun moslashishni istisno etmaydi” [1] “Ikkinchi darajali” muallif hisoblangan tarjimon asl muallifni hurmat qilish bo‘yicha alohida majburiyatlarni o‘z zimmasiga olishi kerak”

Tarjimaning “klassik” ta’riflaridan biri L.S. Barxudarov tomonidan keltirilgan bo‘lib, “Bir tildagi nutqiy asarni (matni) boshqa tildagi nutqiy asarni (matni) o‘zgarmagan mazmun rejasini saqlab qolgan holda almashtirish jarayoni” deb izohlagan.[2]

Bir tomondan, tarjimini jarayon sifatida ko‘rish mumkin [3], buning natijasida yangi (tarjima qilingan) matn yaratiladi. Buyuk adiblarning asarlari tarjimasi boshqa millat o‘quvchilari uchun yaratiladi. Tarjimaviy asarlar tufayli jahon adabiyoti

durdonalaridan bahramand bo‘ladilar. Boshqa tomondan esa, tarjima ham tarjima faoliyati bo‘lishi mumkin [4] va tarjimon faoliyatining aynan natijasi. Kazakova tarjimaning quyidagi ta’rifini keltirgan: “Tarjima - bu transformatsiya manba tilidagi xabarlarni maqsadli tildagi xabarga aylantiradi” [5].

Tarjima milliy adabiy tilning frazeologik tarkibini asliyatga mos o‘xshash va o‘rnini bosuvchi o‘xshashlarni topish orqali boyitish manbalaridan biri sifatida ham qaraladi [6]. Frazeologik birliklarni tarjima qilish jarayonida ularning tuzilishi va mazmunini solishtirish orqali funksional va semantik mustaqil birliklar tanlab olinadi. Bu prinsiplar til elementlarini o‘xshashlik va mos kelishi orqali ifoda qilinadi. Bundan tashqari, tarjimaning asosiy qoidalaridan biri bu turdosh leksik birliklar orasidagi semantik muvofiqlikdir [7].

Shu bilan birga, madaniyatlararo muloqot nuqtai nazaridan, biror bir madaniyatga xos bo‘lgan ma’lum bir tushunchani ifodalashning aniq ekvivalenti bo‘lmasa, mutlaqo aniq tarjima qilish mumkin emas [8].

Tarjima fanidagi asosiy tushunchalar adekvatlik va ekvivalentlikdir. Tarjimaning ham adekvatligi, ham ekvivalentligi uchun zarur shart – bu tarjima qilish qobiliyatidir. Tarjimaning asosiy maqsadi adekvatlikka erishishdir. Adekvat tarjima deganda asliyatga iloji boricha yaqinroq bo‘lgan, mazmunini to‘g‘ri va buzilmasdan yetkazadigan, shuningdek, asl nusxaning o‘zi kabi kommunikativ munosabatlarni ifodalovchi tarjima tushuniladi. Tarjima adekvatligining mohiyati semantik to‘liqlik va aniqlik toifalariga borib taqaladi. T.A. Kazakovaning so‘zlariga ko‘ra, “to‘g‘ri tarjima qilish, turli tillar grammatik tuzilishda ham, so‘zlarning oddiy sonida ham farq qilishi, madaniyatlardagi farqni hisobga olishi zarurligi” haqida ta’kidlaydi [9].

O.I. Maksimenko, E.P. Podlegaeva “Har qanday tarjimada (tildan tashqari) asosiy maqsad tillararo va madaniyatlararo farqlarni bartaraf etish” deb hisoblaydi [10].

Tarjima turli xalqlar adabiyotlarining o‘zaro aloqasi va bir – biriga bo‘ladigan ta’sir jarayonini tezlashtiradi. Tarjimaviy asarlar tufayli jahon adabiyoti durdonalaridan bahramand bo‘lish imkoni oshadi. Tarjima tillarning kamoloti uchun zaruriy vosita sifatida ularning rivojlanish sur’atini tezlashtiradi, lug‘at boyligini

oshirishga yordam beradi. Tarjima insonning ma'naviy hayotini boyitadi, ona tilining imkoniyatlarini ro'yobga chiqaradi, uni serjilo qiladi. Tarjima tufayli kitobxon tafakkuri charxlanib, yangi g'oyalar va tushunchalar bilan boyiydi. Tarjima jamiyatda yangi munosabatlar, qarashlar qaror topishiga xizmat qiladi. Tarjimada turli xalqlar madaniyati va ma'naviyatiga ijobiy ta'sir etadi. Tarjima madaniyatlararo muloqotni tashkil etish va takomillashtirish omilidir.

XX asrning boshlarida o'zbek kitobxonlari inglizabon mualliflarning asarlaridan baxramand bo'lish sharafiga muyassar bo'ldilar. Afsuski, ushbu asarlarning deyarli ko'p qismi rus tili orqali o'zbekchalashtirilgan. Bu esa tarjima jarayonida bir necha nuqsonlar paydo bo'lishiga olib keladi. Mustaqillik yillarida tarjima jarayonida bilvosita tarjimadan bevosita tajimaga o'tish harakatalri sezilmoqda. Bugungi kunda tarjimonlarimiz chet el adabiyoti namunalarini to'g'ridan to'g'ri – o'zbek tiliga tarjima qilmoqdalar. Bu esa tarjimashunoslik sohasida mamlakatimizda sezirarli ishlar olib borilayotganidan dalolatdir. Shuni aytish joizki, kelajak avlod uchun zaruriy ozuqa bilan ta'minlanishdek ulkan harakatlar albatta o'z samarasini beradi.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Касымбекова А. А. Проблема адекватности в диахронии перевода (на материале романов А. Кристи), Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук, Мытищи – 2021.
2. Бархударов Л.С. Уровни языковой иерархии и перевод // Тетради переводчика. М.: МГПИИЯ, 1969. № 6. С. 3 – 12.
3. Виноградов В.С. Введение в переводоведение (общие и лексические вопросы). М.: Издательство института общего среднего образования РАО, 2001. 224 с.
4. Крупнов В.Н. В творческой лаборатории переводчика. М.: Международные отношения, 1976. 192 с.
5. Казакова Т.А. Практические основы перевода. English – Russian. Сер.: Изучаем иностранные языки. СПб.: «Издательство Союз», 2001. 320 с.

6. Ившин В.Д. Перевод как источник сравнительных выражений в современном русском языке (на материале переводов с французского) // Вестник Новгородского государственного университета. 2014. № 77. С. 110 – 111.
7. Улиткин И.А., Нелюбин Л.Л. Использование и перевод сокращений в научно-техническом тексте // Наука о человеке: гуманитарные исследования. 2014. № 4 (18). С. 58 – 69.
8. Садохин А.П. Межкультурная коммуникация: учебное пособие. М.: Альфа-М: ИНФРА-М, 2012. 288 с.
9. Казакова Т.А. Практические основы перевода. English – Russian. Сер.: Изучаем иностранные языки. СПб.: «Издательство Союз», 2001. 320 с.
10. Максименко О.И., Подлегаева Е.П. Проблема перевода названий мультисемиотических текстов (на примере переводов названий серий мультсериала «Смешарики» на английский язык) // Вестник Московского государственного областного университета. Сер.: Лингвистика. 2019. № 2. С. 167 – 175.